

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOJIKISTON DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931

ДАВЛАТ
ИГТИСОДИYOT UNIVERSITETI

SIMON KARIMOV NOMIDASI
TOJIKISTON DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI
TDTU

TOJIKISTON DAVLAT
TEKNOLOGIYA UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
ARHITEKTURA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1931
UZBEK POLYTECHNIC INSTITUTE



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	



MAHALLIY BUDGETLAR IJROSI TO'G'RISIDAGI HISOBOTLAR VA ULARNING AXBOROT IMKONIYATLARINI OSHIRISH MASALALARI

UDK: 37:336.1

Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlar va ularning hududlarni boshqarishdagi ahamiyati yoritilgan. Moliyaviy hisobotlarning tarkibi va ularni tuzish tartibi nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganilgan. Mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning axborot imkoniyatlari tahlil qilingan va ularga oid ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: budget, budget ijrosi, daromad, mahalliy budget, moliyaviy hisobot, xarajat.

Abstract: This article reflects the importance of financial reporting on the execution of the local budget and their role in the management of the region. The theoretical and practical aspects of the structure of financial reports and the procedure for their formation have been studied. The information potential of the local budget performance reports was studied and scientific recommendations on them were presented.

Keywords: budget, budget execution, revenue, local budget, financial statements, expenditure.

Аннотация: В настоящей статье отражены важность финансовой отчетности исполнения местного бюджета и их роль в управлении регионом. Изучены теоретические и практические стороны структуры финансовых отчетов и порядок их формирования. Изучен информационный потенциал отчетов об исполнении местного бюджета и представлены научные рекомендации по ним.

Ключевые слова: бюджет, исполнение бюджета, доход, местный бюджет, финансовая отчетность, расход.

KIRISH

Mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ularni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mahalliy budgetlar ijrosiga oid axborotlarni tahlil qilish zaruratinu yuzaga keltirmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan qayd etilganidek, joriy yilda davlat budgetining kutilayotgan ijrosi, 2023-yilga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, budget-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda joriy yil yakuni bo'yicha davlat budgeti daromadlari 74,5 trln so'm, xarajatlari esa 78,5 trln so'mni tashkil etishi, mahalliy budgetlar ixтиyorida 5,5 trln so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 6 baravar ko'p mablag' qolishi kutilmoqda.[1]

Mamlakatimizda mahalliy budgetlarning barqarorligiga erishish davlatning yaxlit budget tizimi va ijtimoiy siyosat manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosida o'ta mas'uliyatli vazifalarning bajarilishini talab etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdag'i "Budget ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirotini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son'li qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur qarorga ko'ra, budget ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budget mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga asosiy urg'u qaratilgan. Olib borilayotgan budgetlararo munosabatlarni tartibga solishda bir qancha yutuqlarga erishilganiga qaramay, mazkur masala yuzasidan respublikamizning ko'plab viloyat va tumanlarida hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlash jarayonida, jumladan, budget ijrosi hisobotini tuzish va uni qat'iy bajarilishini ta'minlash, birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni budgetdan moliyalashtirish, mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishda budget intizomini mustahkamlash borasida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mayjud.



Mahalliy budget ijrosi bo'yicha hisobotni tuzish va axborot imkoniyatlarini kengaytirish orqali ushbu hisobotlarning shaffofligini ta'minlash zarurati yaqqol namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy budgetlar budget tizimi budgetlarining asosiy bo'g'ini hisoblanib, ular ushbu hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budgetlar daromadlar va xarajatlardan iborat bo'lib, ularning ijrosi to'g'risidagi axborotlarni o'rganish hamda tahlil qilish budget ijrosi jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, kelgusi budget parametrlarini prognoz qilishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlar yuzasidan izlanishlar olib borish zaruratga aylanadi.

Mazkur mavzuda iqtisodchi olimlar tomonidan bir qancha izlanishlar olib borilgan. Jumladan, rossiyalik iqtisodchi olimlar M. Ryabova va G. Yarichina tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin. M. Ryabova "Davlat budgeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzish — budget jarayonining bosqichlaridan biri bo'lib, bunda budget daromadlarining to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda barcha rejalanigan budget xarajatlarini moliyalashtirish nazarda tutiladi", deb izohlaydi.[3]

G. Yarichina esa budget hisobotini "budget jarayoni subyektlarining budget va budgetdan tashqari mablag'larini turlari bo'yicha shakllantirish hamda ushbu mablag'larni maqsadli sarflash yo'nalishlarini aniq aks ettiruvchi ko'satkichlarni umumlashtiruvchi va ifodalovchi shakl", deb ta'riflagan.[4] Budget hisobotiga oid bildirilgan mazkur fikrlar o'rinni, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimiz olimlaridan S. Mexmonov budget ijrosiga oid quyidagi fikrlarni bildirgan: "Moliya organlari belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida Davlat budgeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzadilar. Bunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan shakllarda va muddatlarda Davlat budgeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuziladi va taqdim etiladi".[5]

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga asosan, mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi hisobot borasida "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shakllar bo'yicha amalga oshiriladi", deb belgilangan.[6]

A. Ostonokulov mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzishda budgetdan tashqari mablag'larning shakllanishi va ularning sarflanishini ham e'tiborga olish zarurligini asoslagan.[8]

Mahalliy budgetlar mamlakat moliya tizimining asosiy sohasi bo'lishi bilan bir qatorda, mahalliy organlarning o'z oldiga qo'yilgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy funksiyalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslar bilan ta'minlovchi muhim vositadir.[7] Izlanishlarimizni umumlashtirib aytadigan bo'lsak, mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlari rejasining iyo etilishi, shuningdek, budgetlararo munosabatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish hududlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mahalliy budgetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning shakllanishi, ochiqligi va axborot imkoniyatlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar normativ-huquqiy hujjatlar, Moliya vazirligi axborotlari va xalq deputatlar Kengashlarining qarorlari asosida yig'ildi. Tahlil sifatida huquqiy tahlil, statistik ko'satkichlar solishtiruvlari hamda kontent tahlili usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliya organlari tomonidan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuziladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan shakllar va muddatlarda mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi choraklik va yillik hisobotlar tuziladi hamda taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa mahalliy budgetlar ijrosi bo'yicha tuziladigan hisobot shaklida budget daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi asosiy ko'satkichlar aks ettiriladi. Ushbu hisobotda budget xarajatlari budget tasnifi bo'yicha yoritiladi. Unda tasdiqlangan reja, kassa xarajatlari, qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar va ularning bajarilish foizi ko'ssatiladi, shuningdek, farqlar alohida ko'rinishda aks ettiriladi. Hisobotda mahalliy budgetning hududi g'azna schyotlaridagi hamda g'azna tranzit schyotlaridagi qoldiqlar ham qayd etiladi.

Mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi yig'ma hisobotlar tegishli moliya organlari tomonidan o'zlari iyo etayotgan budget ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga quyi budgetlar ijrosi bo'yicha taqdim etilgan hisobot ma'lumotla-



rini birlashtirish yo'li bilan shakllantiriladi.

Moliya organlari moliyaviy hisobotlarni belgilangan shakllarda va o'sib boruvchi yakun asosida tuzadilar. Moliya organlarida mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat (1-jadval)

1-jadval: Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tarkibi¹

Nº	Hisobotlar tarkibi	Choraklik	Yillik
Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlar			
1	Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi balans	+	+
2	Daromadlar ijrosi to'g'risidagi hisobot	+	+
3	Xarajatlar ijrosi to'g'risidagi hisobot	+	+
4	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarning budget tasnifi bo'yicha kassa va xaqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi	+	+
5	Budjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlari rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot	+	+
Moliya organlarining yillik hisobotlar tarkibida tasarrufidagi budget tashkilotlarining taqdim etiladigan yig'ma hisobotlari			
1	Balans	+	+
2	Xarajatdar smetasining ijrosi haqida hisobot	+	+
3	Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik xaqida ma'lumot	+	+
4	Budgetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari xarakati to'g'risida hisobot	+	+
5	Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari xarakati to'g'risida hisobot	+	+
6	Boshqa budgetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risida hisobot	+	+
7	Joriy yilning moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot		+
8	Nomoliyaviy aktivlarning xarakati to'g'risida ma'lumot		+

Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi balans moliya organlari tomonidan Bosh jurnal daftari va aylanma qaydnomalar asosida tuziladi. Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi balansning aktiv qismi 5 bo'limdan iborat bo'lib, pul mablag'lari, xarajatlar, berilgan ssudalar, hisob-kitoblar va o'tkazilgan mablag'lari bo'limlaridan tashkil topadi. Budget ijrosi to'g'risidagi balansning passiv qismi ham 5 bo'limdan iborat bo'lib, daromadlar, olingan ssudalar, hisob-kitoblar, olingan mablag'lari va moliyaviy natijalar bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Bosh jurnal daftaridagi sintetik schyotlar qoldig'i balansdagi ko'rsatkichlar bilan bir xil bo'ladi. Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning daromadlar qismida budget tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromad summalarini hamda ularning bajarilishi aks ettiriladi. Quyida Surxondaryo viloyatining 2023-yil budget daromadlari ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobot axborotlari asosida shakllantirilgan dastlabki jamlanma ma'lumotlar keltiriladi (2-jadval).

2-jadval: Surxondaryo viloyatining 2023-yil budgeti daromadlari ijrosi to'g'risida dastlabki jamlanma ma'lumot²

1 <https://lex.uz/docs/-3879197>

2 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan



Daromad turlari		Ming so'm	Jami daromadlardagi ulushi (foizda)
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	41 300 000	3,9
2	Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalar uchun yagona soliq to'lovidan Davlat budgetiga ajratmalar	68 499 999	6,5
3	Yagona soliq to'lovidan Davlat budgetiga ajratmalar, shu jumladan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha	56 300 000	5,4
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	189 800 002	18,0
5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan daromad solig'i	49 000 000	4,7
6	Qo'shilgan qiymat solig'i	228 123 166	21,7
7	Aktsiz solig'i	48 154 000	4,6
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	38 100 000	3,6
9	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	36 499 876	3,5
10	Yuridik shaxslar er solig'i	10 800 000	1,0
12	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i	53 600 001	5,1
11	Yagona yer solig'i	18 700 000	1,8
12	Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	8 883 692	0,8
13	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 000 000	0,1
15	Davlat boji	34 482 266	3,3
16	Jarimalar	39 100 000	3,7
17	O'zR IIV YHXBB tomonidan undiriladigan yig'imlar	14 300 000	1,4
18	Bozorlar daromadidan tushum	10 299 962	1,0
19	Mahalliy yig'imlar	2 597 249	0,2
20	Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'mol qilganlik uchun soliq	85 000 000	8,1
21	Boshqa tushumlar	17 600 000	1,7
Jami		1 052 140 213	100,0

Surxondaryo viloyatining 2023-yil budget daromadlari (dastlabki) jami 1052,1 mlrd so'mni tashkil etib, uning tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda normativ doirasida viloyat ixtiyorida qoldirilgan qo'shilgan qiymat solig'i katta ulushni egallagan.

Mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning xarajatlari qismida budget tasnifi bo'yicha xarajatlarga doir aniqlangan reja, moliyalashtirilgan va bajarilgan kassa xarajatlari, shuningdek haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. Bundan tashqari, ushbu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar va moliyaviy majburiyatlar summalari ham ko'rsatiladi.

Mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlari bo'yicha qismida — budget tasnifi asosida — xarajatlarning turlari kesimida aniqlangan, moliyalashtirilgan va bajarilgan xarajatlari, kassa xarajatlari, haqiqiy xarajatlari, qabul qilingan yuridik majburiyatlar hamda moliyaviy majburiyatlar summalari yoritiladi. Quyida Surxondaryo viloyatining 2023-yil budget xarajatlari ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobot axborotlari asosida shakllantirilgan dastlabki jamlanma ma'lumotlar keltiriladi (3-jadval).

3-jadval: Surxondaryo viloyatining 2023-yil budgeti xarajatlarining ijrosi to'g'risida dastlabki jamlanma ma'lumot³

³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan




	Xarajatlar	Ming so'm	Jami xarajat-lardagi ulushi (foizda)
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar	1 641 020 143	87,3
2	Iqtisodiyotga xarajatlar	79 170 640	4,2
3	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar	46 676 500	2,5
4	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	44 660 765	2,4
5	Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash	46 485 218	2,5
6	Zahira jamg'armasi	18 612 900	1,0
7	Boshqa xarajatlar	3 280 050	0,2
	Jami	1 879 906 216	100,0

Surxondaryo viloyatining 2023-yil budjet xarajatlari jami 1879,9 mlrd so'mni tashkil etib, shundan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xarajatlar eng katta ulushni egallagan. Mahalliy budjetga 827,8 mlrd so'm miqdorida respublika budjetidan ijtimoiy soha uchun transfertlar kelib tushgan.

Budjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi hisobtoda budjet tasnifining har bir bo'limi, bobi, paragrafi va turkumi bo'yicha hisobot davri boshiga hamda oxiriga tegishli shtat birliklari soni ko'rsatiladi. Shuningdek, yillik o'rtacha reja va uning bajarilishi haqida ma'lumotlar aks ettiriladi.

Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar qismida budjet tasnifi bo'yicha rezerv fondi mablag'larining sarflanishi va qolgan qoldiqlari yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligining hududiy bo'linmalari tomonidan mahalliy budjet kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tegishli hududiy moliya organlariga belgilangan muddatlarda taqdim etiladi (1-rasm).



1-rasm: G'aznachilik tomonidan hududiy moliya organlariga taqdim etiladigan hisobotlar⁴

Mahalliy budjet g'azna ijrosi to'g'risidagi qabul qilingan hisobotlar qonunchilikda belgilangan muddatlarda Moliya vazirligiga taqdim etiladi. Shuningdek, mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlar hisobot yilidan keyingi yilning 10-mayidan so'ng tegishli tartibda xalq deputatlari viloyatlar, tumanlar va shaharlar Kengashlariga taqdim etiladi.[6]

Mahalliy budjet ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlardagi axborotlar daromad va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha belgilangan reja hamda uning ijrosi haqida davriy ma'lumot olish, shuningdek, kelgusi budjet yili proqnozlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.ss

XULOSA VA TAKLIFLAR

4 Normativ huquqiy-hujjalalar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan



Hozirgi kunda budget ma'lumotlarining ochiqligi va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtiroki orqali, birinchi navbatda, xolislik va ma'lumotlarning shaffofligi ta'minlanadi. Budget mablag'larini shakllantirish va sarflash yo'nalishlari qanday amalga oshirilayotgani to'g'risida aniq va tezkor ma'lumotlar olish imkoniyati oshadi.

Mahalliy budget ijrosi to'g'risidagi moliyaviy hisobotlarning xalq deputatlari Kengashlarida tanqidiy muhokama qilinishini ta'minlash, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ularni davriy nashr etib borish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, mahalliy budget ijrosi bo'yicha moliyaviy hisobotlar tarkibida faqat daromad va xarajatlarning kassa ijrosiga oid ma'lumotlar emas, balki kutilayotgan daromadlar hamda hisoblangan budget xarajatlarini ham aks ettirish zarur, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22-avgustdagи "Budget ma'lumotlaring ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'sirisida"gi PQ-3917-sonli Qarori.
3. Рябова М.А. Бюджетный учет и отчетность: учебное пособие. – Ульяновск : УлГТУ, 2010.
4. Яричина Г.Ф. Бюджетный учет и отчетность. Учебное пособие. Красноярск 2008.
5. Mehmmonov S.U. Budget hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2012.
6. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. 23.12.2013 y. O'RQ-360-son.
7. Alisa Fabiziyan. Budget reporting of Russian Federation. 2017 Elsevier Accountitind and Finance: www.scopus.com
8. Остонокулов А.А. Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармаларини шакллантириш ва ҳисобга олиш хусусиятлари. "Халқaro молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 6, декабрь, 2018 йил

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100